

ASHUROVA GULBAHOR NURULLAEVNA

MUSTAQILLIK DAVRI  
O'ZBEK ADABIYOTIDA  
ALISHER NAVOIY  
OBRAZINING BADIY  
TALQINI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**ASHUROVA GULBAHOR NURULLAEVNA**

**MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK ADABIYOTIDA  
ALISHER NAVOIY OBRAZINING BADIY  
TALQINI**

**MONOGRAFIYA**

**«ILM ZIYO  
ZAKOVAT»  
TOSHKENT- 2021**

UO'K: 021.222.33

30.6.8ya73

833

**Gulbahor Ashurova.** Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida Alisher Navoiy obrazining badiiy talqini: monografiya. – Toshkent: «Ilm ziyo zakovat», 2021, 250 bet.

Ushbu monografiyada mustaqillik davri o'zbek adabiyotida: she'riyat, nasr va dramaturgiyada Navoiy obrazining badiiy talqini masalasi atroficha yoritilgan. Mutafakkir shoir siymosining o'zbek adabiyotidagi tasviri va talqini masalasining o'rganilishi tilshunos, adabiyotshunos, filolog talaba va magistrilar, tadqiqotchilar, o'qituvchilar va shu sohada faoliyat ko'rsatayotganlar uchun mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:**

**Shuhrat SIROJIDDINOV** – Filologiya fanlari doktori, professor

**Boqijon TO'XLIYEV** – Filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

**Nurboy JABBOROV** – Filologiya fanlari doktori, professor

**Bahodir KARIMOV** – Filologiya fanlari doktori, professor

**Uzoq JO'RAQULOV** – Filologiya fanlari doktori, professor

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ulmiy-texnik kengashining 2021 yil 20 apreldagi 6-sonli kengash qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-6034-0-0

© Gulbahor Ashurova

© «Ilm ziyo zakovat» 2021

*Aziz va qadrli padari buzrugvorim, otajonim  
Ashurov Nurullo Sayfullo o'g'lining porloq xotirasiga  
kamoli ehtirom ila bag'ishlayman.*

**SO'ZBOSHI**

Navoiy ijodiga qiziqish, uning asarlarini tadqiq va tahlil qilish mutafakkir shoir zamonidan to hozirga qadar davom etib kelayotgan uzluksiz jarayondir. Navoiy ijodi shunday bir ulkan ummonki, har bir avlod undan o'ziga tegishli duru javohirlarni terib olaveradi. Navoiyni anglash va his qilish o'zbek xalqi tarixini, madaniyatini, qalb ehtiyojlarini, o'zligini anglash va his etishdir. Bugun yoshlarni yuksak insoniy fazilatlar egasi etib tarbiyalash jamiyat oldida turgan asosiy vazifalardan biri ekan, bu jarayonda hazrat Alisher Navoiy asarlari beqiyos manba bo'lib xizmat qilishi aniq. Faqat yozgan asarlarigina emas, bu ulug' siymoning ibratli hayot yo'li, kormillik timsoliga aylangan siyrati zamondoshlarimiz uchun chinakam yo'lchi yulduzdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarorida yoshlarda kitobxonlikni yuksaltirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Bu jihat, avvalo, Navoiy asarlari hamda Navoiy haqida yaratilgan badiiy asarlar mutolaasi masalasini targ'ibu tashviq etishdan boshlanmog'i zarur. Yosh avlodning ma'naviy-intelektual salohiyati, ongu tafakkuriga Navoiy bobomiz haqida yaratilgan asarlarning ta'siri katta bo'lishi isbot talab qilmaydi.

Bugun buyuk mutafakkir hayoti va ijodini o'rganishning o'ziga xos yangi bir bosqichiga qadam qo'ydik. Milliy istiqlol tufayli Alisher Navoiy siymosining adabiyot va san'atdagi ifodasi katta miqyoslarga ko'tarilayotganligi ayni haqiqatdir. So'z mulkinining sohibqironi sifatida o'z davridayoq yuksak e'tirof va e'tibor qozongan buyuk bobokalonimiz obrazining zamonaviy adabiyotimizdagi talqinlarini o'rganish shu jihatdan ham dolzarbdir. Zero, ijodkorlarning bugungi avlodibuyuk mutafakkirni ma'naviy-axloqiy kamolotning cho'qqisi sifatida e'tirof etadi. Turli janrlardagi asarlarida hazrat Alisher Navoiy obrazini o'ziga xos badiiy talqin etishga intilib keladi. Bu ulug' mutafakkir yuksak cho'qqiga ko'tarilgan buyuk adabiyotning qonuniy vorisi sifatida uning ijodidagi hayotbaxsh an'alarini munosib davom ettirishni o'zlarining burchi deb biladi.